

HABIBIY “ISHQ DARSİ” G’AZALI SHARHI

Tojamatova Sarvinoz Rustambek qizi

Andijon davlat universiteti

filologiya (o‘zbek tili) fakulteti III bosqich talabasi

Email: sarvinoztojamatova@gmail.com

Diyoraxon Isomiddin qizi Toychiyeva

Andijon Davlat Universiteti

Kimyo ta’lim yo’nalishi

3- bosqich talabasi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6668128>

Kalit so’zlar : Habibiy, “Ishq darsi g’azali.

Annotatsiya : Ushbu maqolada Habibiyning “ Ishq darsi” g’azali xusuida so’z boradi, uning ma’nolari sharhlanadi.

Yaxshi nom, ezgu amal, solih farzand, haqiqiy ijod, chin do’st. Bu beshlikni keltirishiz bejiz emas, albatta. Zero, ushbu besh jihatni o’zida mujassam etolgan kishi o’zini eng baxtli inson deb hisoblasa bo’ladi. Chunki bunday insonning hayoti shubhasiz baxtiyorlikda o’tadi. Dunyodan ko’z yumgandan so’ng ham yaxshi nomi, ezgu amallari, solih farzandlari, do’stlari va o’lmas ijodi bilan o’zining ikkinchi umrini davom ettiradi. Biz so’zimiz avvalini bunday jumlar bilan boshlashimiz bejiz emas. Ne baxtki, xalqimiz orasidan yetishib chiqqan bunday insonlar ko’pchilikni tashkil etadi. Zero, bugun jisman oramizda yo’q bo’lgan bunday shaxslar yillar va asrlar osha o’zlarining xayrli amallari va qoldirgan boy ma’naviy merosi bilan yuksaklardan bo’ylab, mayoq kabi insonlar qalbini yoritib, ularga ma’naviy ozuqa berib kelmoqdalar. Shoirilar, adiblar, olimlar, san’atkorlarni xalq ma’naviyatining zargarlari deb atash mumkin. Shunday ma’naviyat zargarlaridan biri o’lmas asarlar ijodkori, sharq mumtoz adabiyotining nozik bilimdoni, g’azalnavis, O’zbekiston xalq shoiri Mavlono Zokirjon Holmuhammad o’g’li Habibiy(1890-1980)dir.

Habibiy bir –biridan go’zalmavzularda qalam tebratgan. U yozgan g’azallar o’zining ohangdorligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Uning g’azallari insonga o’zgacha kayfiyat bag’ishlaydi. Quyida uning “Ishq darsi” g’azalini tahlil qilsak:

Ey yoronlar, ishq darsin qilganimda ibtido

Jilvagar erdi ko’zimda nozanin bir mahliqo.

Ushbu “ Ishq darsi” deb nom olgan g’azal oshiq tilidan yozilgan bo’lib , oshiq yoronlariga ya’ni do’stlari, ishq yo’lida unga hamroh bo’lgan birodarariga murojat qilmoqda va ishq darsini boshaganimda (ya’ni sevib qolganmda demoqchi) ko’z oldimda bir nozanin jilvalandi: „ Ey yoronlar, ishq darsin qilganimda ibtido,Jilvagar erdi ko’zimda nozanin bir mahliqo.”

Keyingi misrada :

“Safhayi orazda har lahza o‘qib holu xatin,

Harna mazmun bo‘lsa bo‘ldi shubhasiz ko‘nglimga jo.”

Bu misrada oshiq uning yuzidan qanday havoldaligini uqdim demoqda. “Safhayi oraz” degan so‘zning ma‘nosi yuzning sahifasi degan ma‘noni bildiradi. Agar e‘tibor beradigan bo‘lsak , shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “ Lola” radifli g‘azalida “ yuz sahfasinda” birikmasi qo‘llangani va Habibiydagi ushbu birikma bilan o‘xshashligini sezishimiz mumkin. Oshiq uning yuzidan qanday holatda ekanligini bildim , va bu uning ahvolidan sal bo‘lsa ham xabardorligim ifoya qiladi, buni ko‘nglimga jo etaman deydi.

Keyingi misra:

So‘zlasam ishqu muhabbatdan ochilgay chehrasi

Bor ekan bildim muborak zotida mehr-u vafo.

Oshiq o‘z ma‘shuqasiga sevgi va muhabbatdan so‘zlaydi , shundan so‘ng mashuqaning chehrasi ochiladi. Demak, mashuqaning ko‘nglida ham oshiqqa nisbatan sevgi va muhabbat g‘unchalari kurtak ochgan. Oshiq mashuqasining chehrasi ochlganidan xursand va buning uchun uni “ muborak zot ” deb ataydi. Uning ko‘nglida mehr va vafo bor ekaniga juda ham ursand bo‘ladi.

Keying misra:

Ishq aro Farhodu Majnunlarga tan bergay jahon

Qilmadi tarki muhabbat ko‘rdi ko‘p jabru jafo.

Ishq ichra Farhod va Majnunlarga (ularning boshiga ne-ne kulfatlar tushganini eslang) butun jahon tan berganini aytadi va butun olam ularga tan bersa-da, ularni bshiga ne-ne kunlar tushganini bilsa-da , ammo muhabbatni sira tark aylamaydi, uning jabr- jafosini ha go‘zal deb biladi, hamisha sevgiga intiladi.

Keyingi misra:

Tan berurman emdi har mehnatga toqat ko‘rsatib,

To tirik borman bu yo‘ldan yonmagayman mutlaqo.

Bu misrada oshiq endi har qanday mehnatga, azob –uqubatga toqat ko‘rsatishini aytadi. Va bu yo‘lda sodiq qolishini, yonmasligini ha aytib o‘tadi.

Keying misra:

Yashnagayman dam-badam ko‘rsam tanimga sig‘mayin

Oy yuzidin kasb etib ko‘nglim, ko‘zim nuru ziyo.

Oshiq misoli bir bemor singaridir, unga yagona shifo bo‘luvchi narsa esa mashuqaning visolidur. Bu yerda oshiq mashuqani dam – badam korganda quvonishini, yashnab ketishini va hatto xursandligidan tanasiga sig‘may ketishini, oshiqning ko‘ngli xuddi mashuqaning yuzi singari nurafshon bo‘lin

ketishini ta’kidlamoqda. Mashuqani korib kozlari nurga to’lishini aytib o’zining bu baxtdan naqadar sarast ekanini aytib o’tmoqda.

So’ggi misrada:

Senga ham bo’lgay muyassar, ey Habibiy, vasli yor,

Bo’lmagay aslo umidu orzular barhavo.

So’nngi misrada Habibiy o’ziga murojaat qiladi va unga ha bir u yor muyassar bo’lishini aytib kelajakdan umid uzmasikka chorlaydi.

Habibiy hayotda ko’plab jabru jafolar, turmush qiyinchiliklarini boshdan kechirgan shoirdir. Ammo uning o’lmas she’r va g’azallari yuksak ko’tarinkilik ruhida, do’stlik, ishq-muhabbat, vatanparvarlik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarannum etganligi bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbek adabiyoti tarixi. I jild., -Toshkent., 1972.
2. O’zbek adabiyoti tarixi. II jild., -Toshkent., 1978.
3. Habibiy. Devon ,T.,1975